

BOSHLANG‘ICH SINIF MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISHNING MOHIYATI VA AFZALLIKLARI

Xolboyeva Mahzuna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Ta‘lim tarbiya nazariyasi va metodikasi yo‘nalishi

2-bosqich magistranti

xolboevamahzuna@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ta‘lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi pedagogik va psixologik omillar tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda ota-ona bilan hamkorlikning o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada mustaqil fikrlashning shaxs kamolotidagi o‘rni va ta‘lim samaradorligini oshirishdagi roli ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *mustaqil fikrlash, tafakkur mustaqilligi, boshlang‘ich ta‘lim, kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, o‘quv faoliyati, ta‘lim samaradorligi, bilish jarayoni.*

СУЩНОСТЬ И ПРЕИМУЩЕСТВА ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ МЫШЛЕНИЮ НА УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЯХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются вопросы формирования и развития компетенции самостоятельного мышления у учащихся начальных классов. Проанализированы педагогические и психологические факторы, влияющие на развитие самостоятельного мышления в образовательном процессе. Также обоснована значимость современных педагогических технологий, внеурочных занятий, информационно-коммуникационных средств и сотрудничества с родителями в развитии мышления учащихся. В статье научно раскрыта роль самостоятельного мышления в формировании личности и повышении эффективности образования.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, независимость мышления, начальное образование, компетенция, педагогические технологии, критическое мышление, учебная деятельность, эффективность образования, познавательный процесс.

THE ESSENCE AND ADVANTAGES OF TEACHING INDEPENDENT THINKING TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN CLASSROOM ACTIVITIES

ABSTRACT

This article discusses the issues of forming and developing independent thinking competence in primary school students. Pedagogical and psychological factors influencing the development of independent thinking in the educational process are analyzed. The importance of modern pedagogical technologies, extracurricular activities, information and communication tools, as well as cooperation with parents in developing students' thinking is substantiated. The article scientifically highlights the role of independent thinking in personal development and in increasing the effectiveness of education.

Keywords: independent thinking, thinking autonomy, primary education, competence, pedagogical technologies, critical thinking, learning activity, educational effectiveness, cognitive process.

KIRISH

Boshlang'ich sinf mashg'ulotlarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayoni ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarning o'quv faoliyati orqali ularning dunyoqarashi va tafakkuri shakllanadi, jamiyatga ongli munosabati rivojlanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchining faolligini oshirish, uni mustaqil fikrlashga yo'naltirish orqali o'quv fanlariga bo'lgan qiziqish mustahkamlanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida samarali natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar berish va ularning asoslarini puxta o'zlashtirishiga erishish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, o'quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantirish, tafakkur doirasini kengaytirish hamda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'qitish metodlarining samarali qo'llanilishi va erishilgan natijalar bilan bevosita bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich sinf mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyatga

ega. Mazkur jarayon nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini shakllantirish orqali ta'lim mazmunining sifati sezilarli darajada oshadi. Demak, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib, u barkamol, erkin fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi [8; B.130].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yosh avlodning aqliy va ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim ilmiy-pedagogik muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Shu jihatdan, o'quvchilarda tafakkur mustaqilligini shakllantirish va uni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Psixolog olimlar Z. Nishonova, V. Karimova, R. Sunnatova, E. G'oziyev, K. Kenjabayeva hamda pedagog olimlar Q. Husanboyeva, Sh. Nurullayeva, N. Alavutdinova, M. Zayniddinova, M. Saidov, B. Xodjayev tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil fikrlash tushunchasi, uning shaxs kamolotidagi o'rni va ahamiyati mazkur olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil etilgan. Xususan, psixolog va pedagog olimlar mazkur masalaga o'z ilmiy yo'nalishlari va tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqib, turlicha izoh va ta'riflar berganlar [5; B. 41]. O'quvchi shaxsini mustaqil fikrlashga yo'naltirish masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, har bir tadqiqotchi ushbu jarayonni o'ziga xos metodologik yondashuv asosida talqin etgan hamda uning mazmun-mohiyatini turli jihatlarida yoritib bergan. A.Erkaevning qarashlari bo'yicha esa: "Mustaqil fikrlash jamiyat insonga yaratib bergan imkoniyat va erkinliklarning mahsuli va in'ikosidir" [10; B. 13]. Sh.Nurullayeva boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish borasidagi tadqiqot ishida mustaqil fikrlashga quyidagicha ta'rif berishga uringan. Uningcha: "Mustaqil fikrlash – bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi natijasi o'laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish kabi fikriy amallardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatidir" [6; B. 8].

NATIJALAR

O'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish omillarini tahlil qilishda ularning mazmun-mohiyati, pedagogik ahamiyati hamda kutilayotgan natijalarini aniqlash muhim hisoblanadi. Mazkur kompetensiyani shakllantirish va

rivojlantirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u ta‘lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi va samarali metodlarning qo‘llanilishiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda bir qator muhim omillarga e‘tibor qaratish zarur. Avvalo, dars jarayonlarini o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishi, izlanishi, o‘z fikrini erkin ifoda etishi hamda o‘z xulosalarini tengdoshlari bilan baham ko‘ra olishiga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish muhimdir. Bunday yondashuv o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, umumlashtirish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Mazkur jarayonda zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta‘lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning muayyan yo‘nalishini qamrab olib, o‘quv jarayonining tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etilishini ta‘minlaydi. Bir tomondan, tanlangan texnologiya o‘quv faoliyatining mazmunini belgilovchi tizimni shakllantirsa, ikkinchi tomondan, u ta‘lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifalaridan biri – zamonaviy ta‘lim mazmuni asosida o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish hamda bilimlarni samarali o‘zlashtirish jarayonini ta‘minlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, har bir dars mashg‘ulotini puxta rejalashtirish, metodik jihatdan asoslangan holda tashkil etish va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mashg‘ulotlar o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish, mavjud bilimlarini mustahkamlash hamda yangi ma‘lumotlar bilan boyitish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar egallagan bilimlarini tahlil qilish, ularni qo‘shimcha manbalar asosida boyitish va mustaqil xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonining o‘ziga xos jihati ham aynan o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, mustaqil ishlashga va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirishdan iboratdir [9; B. 74].

Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ham o‘quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy ta‘lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish “o‘quv-pedagogik dasturlar” orqali amalga oshirilib, o‘quvchilarning fanlarga oid manbalarni chuqurroq o‘rganishiga xizmat qiladi. Shuningdek, matn muharrirlari, grafik dasturlar, elektron jadvallar va ma‘lumotlar bazalari kabi dasturiy vositalardan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayrim

mavzularni o'qitishda o'quv filmlari va videolavhalardan foydalanish ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bu jarayonda o'quvchilar axborotni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash kabi muhim amaliy ko'nikmalarni egallaydilar. Natijada, ularning nafaqat bilimlari mustahkamlanadi, balki kompyuter savodxonligi ham rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda izlanuvchanlik, mantiqiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini shakllantiradi.

O'quvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish ham mustaqil fikrlashni shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Har bir o'quvchining qiziqishi va qobiliyatidan kelib chiqqan holda muayyan mavzular yuzasidan mustaqil tadqiqotlar olib borishi ularda ijodiy yondashuv, tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, darslik bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish ham o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchi darslik materiallarini mustaqil o'rganish jarayonida o'z bilim va tajribasiga tayangan holda ularga nisbatan munosabat bildiradi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Bu esa o'quvchilarning darslarga oldindan tayyorgarlik ko'rishiga, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga hamda mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Mazkur hamkorlik o'quvchilarning mustaqil faoliyat olib borishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchining fe'l-atvori va qobiliyatlaridagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, ularni rivojlantirish yo'llarini ota-ona va maktab hamkorligida tashkil etish ijobiy pedagogik natijalarga olib keladi [8; B. 52].

Mustaqil fikrlash o'zining samaradorligi, dolzarbligi va universalligi bilan o'quvchilarni barkamollik sari yetaklaydi, ularning jamiyat va tabiat hodisalarini chuqur anglashlari uchun mustahkam asos yaratadi. Fikr yuritishning mustaqilligi, avvalo, aqlning tashabbuskorligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. Shu bois, o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat ularning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularda axloqiy sifatlarning ham tarkib topishiga xizmat qiladi. Natijada, bunday yondashuv orqali har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash imkoniyati yuzaga keladi. Fikr yuritishning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Agar muayyan sohaga oid ilgari surilgan fikrlar, g'oyalar va tavsiyalar asosida nazariy hamda amaliy vazifalar samarali hal etilsa, bunday fikrlash mahsuldor hisoblanadi. Shu jihatdan, aqliy faoliyat natijalarini vaqt va sifat mezonlari asosida baholash fikr yuritish

mahsuldorligini aniqlashda muhim ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi. Mustaqil fikrlash jarayonida inson oddiy hodisalarni tahlil etishda ularning faqat tashqi belgilariga emas, balki ichki mohiyatiga ham chuqur e'tibor qaratadi. Natijada, kundalik hayotiy kuzatuvlardan umumiy qonuniyatlarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa inson tafakkurining keng imkoniyatlarini namoyon etib, ilm-fan va texnika taraqqiyotining jadallashuviga zamin yaratadi. Inson kamoloti jismoniy, axloqiy va aqliy rivojlanish bosqichlaridan iborat bo'lib, mustaqil fikrlash ushbu jarayonning eng yuqori bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy jamiyat sharoitida aqliy kamolotga erishish uzluksiz aqliy faoliyat, izchil mehnat, irodaviy barqarorlik hamda hissiy yetuklikni talab etadi. Shu bois, yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatish ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur fanlar o'quvchilarda Yer sayyorasi, jamiyat va insoniyat taraqqiyoti haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni anglash va qadrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu fanlarni o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

MUHOKAMA

Hozirgi kunda ta'lim mazmunini yangilash jarayonida o'quvchilarning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini to'liq safarbar etish, ularni mustaqil bilim olishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, bu borada olib borilayotgan izlanishlar va tajribalarga qaramay, ularning amaliy natijalari hali yetarli darajada samarali emasligi kuzatilmoqda. Bu esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq, o'quvchilar nafaqat muayyan bilim va tushunchalarni egallashi, balki hodisa va jarayonlarni tushuntira olishi, ularning fazoviy va vaqt jihatidan o'zgarishini anglay olishi, amaliy ko'nikma va malakalarni namoyon eta olishi lozim. Ayniqsa, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilardan turli hayotiy muammolarni mustaqil hal etish, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondira olish kabi kompetensiyalar talab etilmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi o'quvchi shaxsida yangicha tafakkur va ongni shakllantirmoqda. Mazkur holatni inobatga olmaslik ta'lim samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, ta'lim jarayonini o'quvchilar faolligi asosida tashkil etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan ta'lim jarayonigina ularning maktabga bo'lgan qiziqishini oshirish va bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim sharoitida nazariy bilimlarning ustuvorligi bilan bir qatorda, o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda turli didaktik vositalar, metodlar va usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ma'ruza shaklidagi darslarga nisbatan o'quvchilarning mustaqil bilim egallashiga yo'naltirilgan topshiriqlar, amaliy mashg'ulotlar, didaktik mashqlar va o'yinlar samaraliroq hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning faol fikrlashini rag'batlantiradi hamda ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etar ekan, o'quvchilarda o'zlarini mazkur jarayonning faol sub'ekti sifatida his etish tuyg'usini shakllantirishi zarur. Bu esa ularning o'quv jarayoniga nisbatan mas'uliyatini oshiradi hamda mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtiradi. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda tahlil qilish, kuzatish va taqqoslash kabi muhim aqliy ko'nikmalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarning bilimlarni chuqur anglashiga, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etishiga va asosli xulosalar chiqarishiga zamin yaratadi [4; B. 57].

Psixolog olim Ergash G'oziev xulosasiga ko'ra "Inson shaxsiy faoliyatida, jumladan ta'lim protsessida taqqoslash ustida qancha ko'p mashq qilsa, taqqoslash ko'nikmasi paydo bo'lsa, unda fikr yuritish shunchalik samarali bo'ladi" [2]. Darhaqiqat taqqoslash jarayoniga teran qaralsa u fikriy jarayonning tarkibiy qismi sifatida narsa va hodisani his qilish, sezish bilan bevosita bog'liqligini aniqlash mumkin. Zero sezish, his qilish imkonidan mahrum kishilar taqqoslay olmaydi. Taqqoslash jarayonida o'quvchining ham, o'qituvchining ham xotirasi yangi-yangi axborotlar bilan boyib boradi. Axborotlarga boy shaxs nutqi har qanday suhbatdoshda yoqimli ta'surot qoldiradi. Tushunish-fikrlash faoliyatining maxsus natijasi hisoblanadi. Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, tushunish bosh miya po'stida tegishli muvaqqat nerv bog'lanishlarning paydo bo'lishi natijasidir.

O'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishi va mustaqil fikrlash kompetensiyasining shakllanishi, avvalo, ularning hodisalarni sabab-oqibat bog'liqligida anglay olish qobiliyatiga bog'liqdir. Insonning muayyan hodisani qay darajada tushunganligi, odatda, uning mazkur hodisaning kelib chiqish sabablarini ochib bera olishi hamda uning natijalarini oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, har qanday bilimni egallash jarayonida nazariy tushunchalarni amaliy faoliyat bilan bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mexanizmlarning ishlash tamoyilini tushunish uchun ularning tuzilishi va funksional xususiyatlarini bilish zarur bo'lsa, tarixiy hodisalarni anglash uchun ularning sabab va oqibatlarini

tahlil qilish talab etiladi. Xuddi shuningdek, o'quvchining xulq-atvorini tushunishda ham uning harakatlariga turtki bo'lgan omillarni aniqlash muhimdir. Demak, bilimning haqiqiy o'zlashtirilganlik darajasi uni amaliyotda qo'llay olish bilan belgilanadi [7; B. 66].

O'quvchilarning bilim darajasini baholashda ularning o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llay olish ko'nikmasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Jumladan, o'quvchi grammatika qoidalarini yoki tabiiy fanlarga oid qonunlarni nafaqat nazariy jihatdan ifodalay olishi, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay bilishi orqali bilimlarning chuqurligini namoyon etadi. Shuningdek, matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon eta olish, asosiy g'oyani ajrata bilish ham o'quvchining mustaqil fikrlash darajasini ko'rsatuvchi muhim indikatorlardan biridir. O'quvchilarni hodisalarni izohlashga, fikrni mustaqil ravishda ifodalashga va muhim jihatlarni ajrata bilishga o'rgatish orqali ularning voqelikni har tomonlama va chuqur anglashlariga erishish mumkin. Bu esa o'z navbatida, mustaqil fikrlashni shaxs kompetensiyasi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil fikrlash har qanday faoliyat turida, ayniqsa, individual va jamoaviy faoliyatda yuqori natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Mustaqillikni shakllantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, u shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik hissi bilan chambarchas bog'liqdir. Inson ongli ravishda amalga oshirgan harakati uchun mas'uliyatni his eta olgan taqdirdagina haqiqiy mustaqillikka erishadi. Aksincha, mustaqil fikrlash ko'nikmasi rivojlanmagan yoshlar turli tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan bo'lib qoladi, bu esa ularning noto'g'ri g'oyalar yoki zararli oqimlar ta'siriga tushib qolish xavfini oshiradi. Shu bois, yosh avlodda mustaqil fikrlashni rivojlantirish ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Mustaqillik shaxsda chidamlilik va barqarorlikni shakllantirib, uni turli hayotiy vaziyatlarga moslashuvchan qiladi, aqliy va hissiy zo'riqishlarga bardosh berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Pedagogik tadqiqotlarda tafakkur mustaqilligi ko'proq o'quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirish bilan bog'liq holda o'rganilgan bo'lsa, falsafa va sotsiologiyada inson tafakkurining ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqadorligi asosiy e'tiborda bo'lgan. Psixologiya va didaktika sohalarida esa mustaqil fikrlash uzoq vaqt davomida o'quvchining o'quv vazifalarini mustaqil hal etish qobiliyati sifatida talqin etib kelingan. Ko'plab olimlarning ta'kidlashicha, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish muammosini samarali hal etish, bir tomondan, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ijodiy fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash imkonini

beradi. Shu bilan birga, ushbu masalani nafaqat ta'lim metodi yoki tamoyili sifatida, balki shaxsning muhim xislati sifatida o'rganish zarurati ham mavjud [10; B. 174].

Tafakkur mustaqilligi muammosini faqat o'quvchilarning o'quv vazifalarini bajarishi doirasida emas, balki ularning real hayotda duch keladigan muammolarni hal etish jarayoni nuqtai nazaridan ham o'rganish muhimdir. Bunday yondashuv o'quvchilardan nafaqat aqliy mustaqillikni, balki tanlash erkinligi, axloqiy javobgarlik, chidamlilik, mustahkam iroda va murakkab vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik kabi sifatlarini ham talab etadi [6; B. 134].

O'quvchida mustaqil fikrlash kompetensiyasining rivojlanganligi bir qator ijtimoiy-pedagogik va psixologik omillar bilan belgilanadi. Avvalo, bu jarayon shaxsning o'z va boshqalarning fikrlarini tanqidiy baholay olishi, suhbatdosh fikrining mantiqiy asoslarini anglash, turli qarashlarni solishtirish va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Mazkur ko'nikmalar o'quvchining muloqot jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlab, uning mustaqil fikr yuritish darajasini oshiradi.

Shuningdek, shaxsning fikr mazmuniga bo'lgan munosabati, ya'ni unga nisbatan ishonch darajasi ham muhim ko'rsatkichlardan biridir. Fikrga ko'r-ko'rona ishonishdan ko'ra, uni mantiqiy va asosli tarzda qabul qilish yuqori darajadagi tafakkur madaniyatini ifodalaydi. Fikrning ishonchliligi uning xolisligi, mantiqiyliigi, muayyan shaxslar ta'siri va individning o'zini baholash darajasiga bog'liq holda shakllanadi. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi fikrning sifatini belgilaydi. Mustaqil fikrlashning muhim jihatlaridan yana biri – qarama-qarshiliklarni anglay olish qobiliyatidir. O'quvchi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida voqea va hodisalar o'rtasidagi turli munosabatlarni aniqlashi, mantiqiy va dialektik qarama-qarshiliklarni farqlay olishi zarur. Bu esa uning analitik tafakkurini rivojlantirib, bilimlarni chuqurroq anglashga imkon yaratadi [9; B.18].

Bundan tashqari, tafakkurda nazariy va amaliy umumlashtirishning uyg'unligi ham mustaqil fikrlash darajasini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. O'quvchining faktlar asosida umumiy xulosalar chiqarishi (amaliy umumlashtirish) va umumiy qoidalarni konkret holatlarga tatbiq eta olishi (nazariy umumlashtirish) uning analitik-sintetik faoliyatining rivojlanganligini ko'rsatadi. Nazariy umumlashtirishning ustunligi esa o'quvchining tafakkur mustaqilligi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Diqqatning ixtiyoriy boshqarilishi ham mustaqil fikrlashning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Diqqatning ko'chuvchanligi, hajmi va tanlovchanligi o'quvchining aqliy faoliyatini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'quvchining murakkab vazifalarni bajarish jarayonida diqqatni to'g'ri yo'naltira olishiga yordam

beradi. Aqliy tashabbuskorlikning rivojlanganligi ham mustaqil fikrlashning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Bunda o'quvchi tashqi ta'sirlarsiz, o'z tashabbusi bilan muammolarni muhokama qilishga intiladi, o'z fikrini asoslash va himoya qilishga harakat qiladi. Bu esa uning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanganligini ko'rsatadi [1; B. 28].

Umuman olganda, tafakkur mustaqilligi shaxsning muhim xislati sifatida uning bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, voqea-hodisalarni tahlil qilish va baholash, asosli xulosalar chiqarish jarayonida namoyon bo'ladi. Fikr va e'tiqodning rivojlanishi bilish jarayonining muhim omili bo'lib, o'quvchida chuqurroq o'rganishga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bu esa motivatsiya, iroda va aqliy faoliyatning uyg'unlashuvi orqali o'quvchining o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarda mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay psixologik muhit yaratish, ijtimoiy omillarni hisobga olish hamda pedagogik jarayonni mazmunan boyitish zarur. Mazkur omillarning uyg'unligi o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlab, ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Mustaqil fikrlash o'quvchilarning bilimlarni chuqur anglashiga, ularni amaliyotda qo'llay olishiga hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishiga xizmat qiladi. Mazkur kompetensiyani shakllantirishda dars jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, sinfdan tashqari faoliyatni samarali yo'lga qo'yish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish hamda ota-onalar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tanqidiy baholash kabi aqliy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali ularning tafakkur mustaqilligini yuqori bosqichga olib chiqish mumkin. Mustaqil fikrlashning rivojlanishi o'quvchilarning nafaqat intellektual salohiyatini oshiradi, balki ularni ijtimoiy faol, mas'uliyatli va barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli yondashuvni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alavutdinova N. Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent: Ta'lim, 2015.

2. G‘oziyev E. Mustaqil fikrlashning taraqqiyotga ta’siri // “Ma’rifat”. – 1999. – 2 iyun.
3. Zayniddinova M. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Noshir, 2012.
4. Karimova V., Sunnatova R. Mustaqil fikrlash bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish yuzasidan uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2000. – 193 b.
5. Musayev J. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik va psixologik omillari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. № 2, 2022. – 41 b.
6. Nishonova Z. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: Psixol. fan. dok. ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2005. – 38 b.
7. Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish usullari: Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2007. – 148 b.
8. Saidov M. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligini oshirish usullari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
9. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. – Toshkent: O‘zinkomsentr, 2003. – 103 b.
10. Xo‘djayev B. Pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
11. Erkayev A. Tafakkur erkinligi mezonlari. – Tafakkur, 2006. – № 2. – B. 12–19.